

## O'ZBEKISTONDA ESTRADA XONANDALIGINING RIVOJLANISHI VA KO'RINISHLARI

**Alayeva Zarnigor Maxmudovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Ushbu maqolada o'zbekistonda estrada xonandaligining rivojlanishi va ko'rinishlari haqida qisqacha mulohazalar bildirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Estrada, musiqa, san'at, xalq og'zaki ijodi, xonanda, uslub.

**Estrada** (ispancha - taxtasupa), estrada san'ati - 1) keng ma'noda - ko'ngilochar, ommabop badiiy (abadiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma'noda - sahnaviy professional san'at turi. Rossiya va boshqalar ba'zi mamlakatlarda estrada Angliyada myuzikxoll, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan estrada yuritiladi. Estradaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsada, u muayyan san'at turi sifatida 19-asrda Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiymadaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli - maxsus joylarda, muntazam ravishda o'tkaziladigan estrada konsertidir. U bir nechta artistning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat bo'lib, ifoda vositalarining lo'nda va yorqinligi, o'ziga xosligi, ishtirokchilarning tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Estrada tomoshalari ba'zan konferansye birlashtirgan mavzuli dastur asosida tuziladi. Yevropada estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqalar joylarda o'tkazilgan. Ularda so'z ustalari, qo'shiqchilar, raqqos va raqqosalar, shuningdek, akrobat, ko'zbog'lovchilar ishtirok etgan. Hozirda estrada sahnalarida monolog, felyeton, hajviy hikoya kabi nutq janrlari, estrada raqs va kuplet va estrada qo'shig'i, ko'pgina sirk turlari jonglyorlik teatr miniatyurasi, qo'g'irchoqbozlar chiqishlari, pantomima va boshqalar mavjud.

O‘zbekistonda Estradaning rivojlanishi quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lgan: bir tomondan unda an’anaviy san’at namunalari sahna talablariga moslashtirib o‘zgartirilgan yoki milliy janrlar negizida yangi sahna turlari yaratilgan.

Ikkinchi tomondan O‘zbekiston Estradasi chet el san’ati shakl va uslublari ni o‘zlashtirishi bilan boyidi. 1956-yildan O‘zbek estrada teatri, keyinchalik O‘zbek davlat estrada birlashmasi faoliyat ko‘rsatgan.

Hozirda O‘zbekistonda estrada san’atini rivojlantirish, estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar “O‘zbeknavo” birlashmasiga yuklatilgan. estrada o‘quv yo‘nalishi sifatida maxsus ta’lim tizimiga kiritilgan. 1996-yildan Toshkent estrada kolleji, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi va boshqalar san’at o‘quv yurtlarida estrada ftlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri o‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni voyaga yetkazishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko‘p qirrali tarbiya tizimidan iborat. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta’limi orqali tarbiyalash muhim ro‘l o‘ynaydi. Musiqa ta’limi yosh avlodning milliy ma’naviyati va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda musiqa asosan xalq va og‘zaki an’anadagi professional musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, qo‘shiqning turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o‘yin, raqs, lirik, nasihatimiz va boshqa), og‘zaki an’anadagi o‘zbek professional musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg‘u yo‘llari kabi janrlar mavjud. O‘zbek musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin.

Xorazm musiqa uslubi, Farg‘ona - Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo Qashqadaryo musiqa uslubi. 20-asrda o‘zbek va O‘rta Osiyo xalqlari musiqa merosini yozib olish va o‘rganish bo‘yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to‘plamlari nashr etildi. Bastakor, xofiz va sozandalar o‘zbek musiqa merosi durdonalari (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari) ni keng targ‘ib qilibgina qolmay, yangi cholg‘u kuy va ashulalar yaratdilar, dastlabki musiqali drama va komediya asarlarining mualliflari bo‘lishdi. 1930-40- yillarda O‘zbekistonda avvallari bo‘lmagan yangi (opera, balet, simfonik musiqa, kamer musiqa) kabi musiqa janrlari yuzaga keldi. Ayniqsa, 1950-60- yillardan boshlab

O'zbekiston kompozitorlari ijodi keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy musiqaning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo'nalishlari ham keng yoyildi.

Hozirgi kunda musiqa ta'limi va musiqa bilim dargohlari takomillashib bormoqda. O'zbekistonda tashkil etilgan ilk musiqa dargohlarini Buxoro musiqa maktablari, Samarqand musiqa va xoreografiya institutlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, hozirda musiqa ta'limiga naqadar katta e'tibor qaratilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Bilamizki, musiqa insonning tarbiyasida juda muhim o'rin tutish shakshubhasizdir. Musiqa tarbiyasi bo'yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, musiqa insonning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va unga o'zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo'ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi.

Ma'lumki, har bir xalq yuksak axloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalashda o'zbek xalqining musiqa madaniyati namunalaridan foydalanish muammosini hal qilish g'oyat muhimdir. Binobarin, yosh avlodni xalq musiqasi vositasida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hamma vaqt ham zarurdir.

Demak, barcha sohalarda bo'lgani kabi musiqa pedagogikasida ham tub islohotlar izchil davom ettirildi, o'quv dasturlari, darsliklar mazmuni xalqimizning milliy madaniy yutuqlari, jahon musiqa ilmi va ta'limida erishilgan ilg'or tajribalar asosida shakllantirildi, Shu munosabat bilan Sharq musiqa madaniyatining, shu o'rinda eng mukammal tarixiy ildizlariga ega bo'lgan o'zbek xalq musiqasi hamda musiqa ma'rifatining taraqqiyoti, uning ayrim sohalari, janrlari, musiqani ta'lim-tarbiyaviy jihatlari yoritilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Amaldagi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun darsliklarning yangi avlodi yaratildi va ularni uzluksiz ravishda takomillashtirish ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda. Biz esa musiqa ta'limi jarayonida xalqimizning milliy qadriyatlari, urfodatlarini, an'analari, o'zbek milliy musiqa merosi va qo'shiqlaridan keng foydalanishimiz zarur. Yoshlarni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda xalq musiqa madaniyatidan foydalanishimiz zarurligini ana shu bilan izohlashimiz mumkinki, xalq tarixni harakatlantiruvchi kuchdir, san'atning barcha turlarini, shu jumladan musiqa san'atini ham ta'minlaydigan hayotdagi donolikning, axloqiy poklikning jonli manbaidir.

Biz O'zbekistonda tashkil etilgan ilk musiqa dargohlarini ularning uslublarini, holatini o'rganish bilan bir vaqtning o'zida mustaqil O'zbekistonimizning musiqa ta'limining

takomillashuvini o'rganishimiz va uni rivojlantirishning yangi uslub va vositalarini ishlab chiqishimiz lozim. Bu-albatta, musiqa o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'qituvchilar, xususan, musiqa o'qituvchilari yosh avlodni vatanparvarlik hamda istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashlari, bunday boy milliy ma'naviy merosimiz, hozirgi zamon ijodiy yutuqlarimiz, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'rganish va o'zgartirish ishlarini yanada yaxshilash choratadbirlarini ishlab chiqib, amalga oshirishlari, umuman olganda, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashlari lozim. Zero, musiqa ta'limini takomillashtirish, unga e'tibor qaratilishining asosiy sababi ham ana shunda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ; REFERENCES**

1. To'Rayevich, Yarashev Jo'Rabek, and Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi. "Musiqaning inson ongiga tasiri." *Ta'lim fidoyilari* 7.8 (2022): 607-611.
2. To'rayevich, Yarashev Jo'rabek, and Rizoyeva Munisa Shokirovna. "RUS KOMPOZITORLAR IJODIDA STILIZATSIYA TUSHUNCHASINING MUSIQA FANIGA KIRIB KELISH TARIXI." *PEDAGOGS jurnali* 10.4 (2022): 100-104.
3. Alayeva, Zarnigor Maxmudovna. "TALABALARNI MILLIY BADIY AN'ANALAR VOSITASIDA G'OYAVIY TARBIYALASH TIZIMI." *ZAMONAVIY FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINING INNOVATSION YECHIMLARI* 5 (2023): 12-15.
4. Alayeva, Zarnigor. "Pedagogik mahorat: Pedagogik mahorat." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 1.1 (2021).
5. Maxmudovna, Alayeva Zarnigor. "The System of Ideological Education of Students through National Traditions." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 3.2 (2023): 47-51.
6. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Педагогика как наука и искусство воспитания." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 78-81.
7. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Интерпретация методов музыкального воспитания и образования дошкольника." *Science and Education* 3.4 (2022): 1253-1258.
8. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Роль национальных инструментов в музыкальном образовании начальных классов." *Проблемы науки* 66 (2021).
9. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Регулирование и интерактивное планирование музыкального воспитания и образования для начальных классов." *Science and Education* 3.4 (2022): 1259-1264.

10. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Дискретность ритмических движений. Ритмика в начальной школе хореография." *Science and Education* 3.4 (2022): 1233-1238.
11. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Методические рекомендации по развитию ритмических навыков младших школьников." *Science and Education* 3.4 (2022): 1246-1252.
12. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Шаг с подскоком в детском хореографии. Методические трудности педагога хореографа при выполнении шага с подскоком." *Science and Education* 3.4 (2022): 1239-1245.
13. Алаева, З. М. "Использование Арт-Педагогических Технологий В Развитии Музыкальных Способностей Студентов." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 3.1 (2022): 6-9.
14. Alayeva, Zarnigor Maxmudovna, and Sadoqat Ruslanovna Shamsiyeva. "Qo'shiq tushunchasi va uning inson hayotida tutgan o'rni hamda xonandalik ijrochiligi tarixi." *Scientific progress* 1.5 (2021): 336-342.
15. Аллаева, Зарнигор Махмудовна. "ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕСЕН И ТАНЦЕВ." *Наука, техника и образование* 2-1 (77) (2021): 69-72.
16. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Основы хорового пения на уроках музыки //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 55-57.
17. Шамсиев Ш. И. Молодой специалист учитель музыки, как руководитель хорового коллектива в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 540-545.
18. Шамсиев Ш. И. Новые подходы к подготовке молодых специалистов учителей музыки, разработка уроков музыки //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 528-533.
19. Shamsiev S. I. The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education //International Journal on Integrated Education. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 76-78.